

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

“Tasdiqlayman”
O‘ZDK rektori



« » 2020 yil

“Kelishildi”
**O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi**



« » 2020 yil

**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

- 5150704 – Cholg‘u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg‘ular(fleyta, goboy)**
- 5150705 - Cholg‘u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg‘ular(klarnet, fagot)**
- 5150706 - Cholg‘u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg‘ular(valtorna, truba)**
- 5150707 - Cholg‘u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg‘ular(trombon, tuba)**
- 5150708 - Cholg‘u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg‘ular(zarbli cholg‘ular)
ta‘lim yo‘nalishlari uchun**

Toshkent – 2020 yil

Kirish

5150704 – Cholg’u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg’ular(fleyta, goboy),
5150705 - Cholg’u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg’ular(klarnet, fagot),
5150706 - Cholg’u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg’ular(valtorna, truba),
5150707 - Cholg’u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg’ular(trombon, tuba),
5150708 - Cholg’u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg’ular(zarbli cholg’ular)
ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Ushbu ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha hujjat topshirgan abituriyentlar musiqiy asar ijrosi borasida ish bajaradilar. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Fanning maqsadi va vazifalari

5150704 – Cholg’u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg’ular(fleyta, goboy),
5150705 - Cholg’u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg’ular(klarnet, fagot),
5150706 - Cholg’u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg’ular(valtorna, truba),
5150707 - Cholg’u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg’ular(trombon, tuba),
5150708 - Cholg’u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg’ular(zarbli cholg’ular)
ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ijrochilik ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Abituriyentlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi va aql zakovati hisobga olingan tarzda me‘yoriy dasturni o‘zlashtirish ustida ish olib boriladi.

“Puflama va zarbli cholg’ular ijrochiligi” fanini o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini o‘zlarining ijro mahoratini namoyish etishlaridan iboratdir. Alohida e‘tibor professional darajali ijroni mukammallashtirishga, uni yuqori badiiy saviyada ko‘rsatib berishga qaratilishi kerak. “Puflama va zarbli cholg’ular ijrochiligi” fani yuzasidan abituriyent davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo‘lgan, ya‘ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog‘onalari xususan, adabiyot va san‘at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo‘lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

5150704 – Cholg’u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg’ular(fleyta, goboy),
5150705 - Cholg’u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg’ular(klarnet, fagot),
5150706 - Cholg’u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg’ular(valtorna, truba),
5150707 - Cholg’u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg’ular(trombon, tuba),
5150708 - Cholg’u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg’ular(zarbli cholg’ular)
ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishga kirayotgan abituriyentlarni saralash maqsadida sinfda kirish talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko‘zda tutilgan.

O‘qishga kiruvchi 30 daqiqagacha bo‘lgan vaqt mobaynida ijro dasturini ijro etib berishi, 15 daqiqagacha vaqt mobaynida kollokvium topshirishi talab etiladi.

“Puflama va zarbli cholg‘ular” sohasi bo‘yicha o‘qishga kiruvchi quyidagi bo‘limlardan iborat tanlovli imtihon topshiradi:

1. Cholg‘uda ijro dasturi;
2. Kollokvium.

Cholg‘uda ijro dasturi

5150704 – Cholg‘u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg‘ular(fleyta, goboy),
5150705 - Cholg‘u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg‘ular(klarnet, fagot),
5150706 - Cholg‘u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg‘ular(valtorna, truba),
5150707 - Cholg‘u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg‘ular(trombon, tuba),
5150708 - Cholg‘u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg‘ular(zarbli cholg‘ular)
ta‘lim yo‘nalishiga ariza topshirgan barcha abituriyentlar belgilangan ro‘yxat asosida, yakka tarzda, tayyorlangan dasturni fortepiano jo‘rligida yoddan ijro etishadi.

Abituriyent asarlar nota matnini xatosiz, asarning sur‘atini ko‘rsatilgan tezlikda, ijro shtrixlarini to‘g‘ri qo‘llagan holda, intonatsiya sofligiga amal qilib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarib, shuningdek, pozitsiya va applikatorani to‘g‘ri qo‘llagan holda, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to‘liq ochib bergan holatda ijro etib berishi zarur. Asarda musiqiy ifoda vositalarining qo‘llanishi, tovush kuchi va uni boshqarish, hamda uning sifati asosiy ahamiyatga ega.

FLEYTA:

Kiruvchilar quyidagi asarlarni ijro etishi kerak:

a) 5 ta tayyorlangan etyudlardan 2 tasi nota bilan ijro etiladi, masalan: N.Platonov – 30 etyud, 24 – etyud, Yu. Yagudin – 24 etyud, 20 etyud, ekelleo – etyudlar, I - II daftarlar.

b) Pesalar, masalan: D. Omonullaeva – Pamir eskizi, A. Kozlovskiy - Zarg‘aldok (Ivolga), G. Mushel – Syuita № 1, № 2, Ariya va Arabeska, F. Yanov – Yanovskiy – Vals, A. Malaxov – Kontsert Allegrosi, V. Saparov – Tokkato, Pastoral, T. Qurbanov - Pesa, Fore – Sitsiliana, Glier – Melodiya, Rakov – 3 pesa.

v) Yirik asarlar, masalan : G. Mushel – Sonatina, X. Glyuk–kontsert, Telemann - Sonata Fa major, F. Bax – Sonata Iya minor, Vivaldi – kontsert Sol major, I. Gaydn – kontsert – Re major, M. Gaydn kontsert Re major, K. Stamits – kontsert sol major, Rozetti – kontsert Re major.

GOBOY:

Kiruvchi quyidagi asarlarni ijro etishi kerak:

1. 5ta tayyorlangan etyudlardan 2 tasi nota bilan ijro etiladi, masalan: L. Videman - 37 etyud, Ferling – 18 etyud, Lyuft – 24 etyud;

2. Pesalar, masalan: T. Qurbanov – Rondo, G. Mushel – Gulnora raqsi, o‘zbek xalq kuyi «Qashqarcha». T.Sodiqov – Baxor, S. Vasilenko – Tongdagi qo‘shiq, R. Glier – Andante, Skryabin – Orzular, Chaykovskiy- G‘amgin qo‘shiq Motsart – Menuet .

3. Yirik asarlar masalan: I. Gaydn – kontsert II-III qism, Vivaldi – kontsert Do major, Iya minor, Chimorozo – kontsert I-II qism, Marchello – kontsert I-qism, Gendel – kontsert Si bemol major III-IV qism.

KLARNET

Kiruvchi quyidagi asarlarni ijro etish kerak:

1. 5ta tayyorlangan etyudlardan 2tasi nota bilan ijro etiladi, masalan: K. Berman- etyudlar IV-qism, R. Shtark- 24 etyud, Kloze – xarakter etyudlar, A. Shtark –24 etyud, A.Regis - 24 etyud, F. Krepsht - etyudlar, B. Dikov- etyudlar, V. Petrov - tanlagan etyudlar, Pere- etyudlar.

2. Psalar masalan: M. Bafoev - Lirik xikoya, P. Xalikov - Skertso, F. Yanov – Yanovskiy - Monolog, F. Nazarov- Syuita, A. Ergashev - Sharq kaprichiosi, S. Boboev – Rapsodiya, S. Taneev - Kantsona, Rabo - Konkursnoe solo, A. Messajje -konkursnoe solo, L. Perminov - Ballada.

3. Yirik asarlar, masalan: Veber - kontser №1, №2, kontsertino, katta kontsert dueti, Kramarj – kontsert, E. Gabler - kontsert №1, №2, P. Xalikov- kontsertino, K. Stamits – kontsert, Medьm - kontsert, Vasilenko - kontsert, Verdi- Bassi- kontsert fantaziya, N. Rakov- kontsert fantaziya, F. Pulenk- sonata.

FAGOT

Kiruvchi quyidagi asarlarni ijro etishi kerak:

1. 5ta tayyorlangan etyudlardan 2 tasi nota bilan ijro etiladi, masalan: Milde - etyudlar, Vaysenborn- etyudlar, Djampieri- etyudlar.

2. Pesalar, masalan: S. Jalil- Yumoreska, T. Kurbonov - Rechitativ, Chernov- Sertso, Debyussi- 5 pesa, klassik pesalar to‘plami, M. Ashrafiy - so‘zsiz qo‘shiq.

3. Yirik asarlar masalan: Teleman - sonata, Vivaldi - sonata, Sen–Sans - Sonata, Tansman – Sonata, E. Bozza – Rechitativ –Sitsiliana va Rondo, Fantaziya; Dvarionos – Variatsiya, Veber – variatsiya, Veber – kontsert, Venger fantaziyasi, Vivaldi – kontsert, Buamorte – kontsert, Bax – Kontsert, Motsart – Kontsert.

SAKSOFON

Abituriyent quyidagi asarlarni ijro etish kerak :

1. 5ta tayyorlangan etyudlardan 2tasi nota bilan ijro etiladi.
2. 2ta turli xarakterdagi pesa.
3. 1ta yirik asar. (1-yoki 2-3- qism).

VALTORNA

Kiruvchi quyidagi asarlarni ijro etish kerak:

1. 5 ta tayyorlangan etyudlardan 2 tasi nota bilan ijro etiladi, masalan: Kaprash – etyudlar I – daftar 10 nomerdan, Kling - 40 etyud.

2. Pesalar, masalan: S. Raxmaninov – Elegiya A.Glazunov – Orzu, I. S. Bax – Ariya. A.Paxmutova – Noktyurn, Kofron Sonatina. Loreni – Elegiya, B.Gienko – Romans, T. Kurbonov – Ballada.

3. Yirik asarlar, masalan: Sen-Sans - kontsert pesasi, I. Gaydn - kontsertino, V. Shebalin kontsertino, Motsart- kontsertlar, R.Shtraus- kontsert № 1, B. Asafev - Variatsiya.

TRUBA

Kiruvchi quyidagi asarlarni ijro etishi kerak:

1. 5 ta tayyorlangan etyudlardan 2 tasi nota bilan ijro etiladi, masalan: Brand - etyudlar, Balasanyan - etyudlar, Vurm - etyudlar, Arban - etyudlar, Usov - etyudlar, Ginetsinskiy - etyudlar.

2. Pesalar masalan: Pesalar to‘plami - Tabakov va Orbid redaksiyasida. Karim-Xoji – Elegik poema, Qurbonov - Oda, B. Gienko- Syuita, Enesku - Afsona, Botstsa - Qishloq tasviri.

3. Yirik asarlar, masalan – A.Araturyan –Kontsert, Y.Gaydn – Kontsert, S. Karim-Xodji – Kontsert, Y.Gummel – Kontsert, J.Arban – Venetsiya karnavali,

TROMBON

Kiruvchi quyidagi asarlarni ijro etishi kerak:

1. 5 ta tayyorlangan etyudlardan 2 tasi nota bilan ijro etiladi, masalan: Reyxe - etyudlar, Blajevich - Trombon uchun maktab, B. Grigorev - tanlangan etyudlar, Trombon uchun xrestomatiya.

2. Pesalar, masalan: Blajevich – Eskiz № 5 Gendel-Adajio, Arioza, Sen-Sans - Kavatina, Kalinkovich - Elegiya, Gilman -Simfonik pesa, Qurbonov - Rondo, S. Varelas - Rekvem, Ballada, Passakalya.

3. Yirik asarlar, masalan: Blajevich-kontsert №2 Novakovskiy-kontsertino, David - kontsertino, Reyxe - kontser № 1, № 2, Knop-variatsiya va polonez, N. Rileskiy – Korsakov - kontsert.

TUBA

Kiruvchi quyidagi asarlarni ijro etish kerak:

1. 5 ta tayyorlangan etyudlardan 2 tasi nota bilan ijro etiladi, masalan: Blajevich - 70 etyud, Grigorev - etyud, «Tuba uchun maktab».

2. Pesalar, masalan: K. Veber - Romans, A. Berlin - Vals, N. Rakov-Vokaliz, Kuprevich - Skertsino, K. Sen-Sans - Kavatina.

3. Yirik asarlar, masalan: Blajevich - kontsert №2 II - qism, David - Kontsertino II – III - qism, Novakovskiy - Kontsertino, Marchello - sonata I – II - qism.

ZARBLI ChOLG‘ULAR

Kiruvchi quyidagi asarlarni ijro etishi kerak:

1. Ksilofon-Marimba: Gammalar, etyudlar (2ta) texnik asarlar (Motsart - «Figaro to‘yi», Rzaev – kontsert va boshqa asar;

2. Vibrafon: Pesalar - Bax – Ave Mariya va boshqa asarlar.

3. Kichik baraban: 10 tayyorlangan etyudlardan 1 ta masalan: Osadchuk-60 etyud, Kupinskiy-«Zarbli cholgular uchun maktab» Pesa 1 ta, masalan: Paliev - kontsert etyudi, Chardjer - «SOLO».

4. Litavra: Pesalar – 1 ta masalan: Minetin - «Timp-lero» yoki boshqa asarlar.

Kollokvium

Kollokvium savol-javoblari:

a) ijro dasturiga oid savollar: (asarning shakl jihatidan tahlili, muallifi, yaratilgan davri va ijro yo‘nalishi, ijroning badiiy xususiyatlari v.h);

b) o'rta maxsus ta'limning umumiy kursi darajasida elementar musiqa nazariyasi, cholg'ushunoslik, musiqa adabiyotidan bilimlarni;

v) shakl va garmoniya nuqtai nazaridan kichik hajmdagi - sonatina, romans, kuy va b. asarlarni tahlil qilish qobiliyati kabilarni o'z ichiga oladi;

Shuningdek, kollokviumda abituriyentning musiqa san'ati va boshqa san'at turlaridan, o'zbek va chet el musiqasida ma'lum va mashhur asarlar, zamonaviy an'analar haqidagi bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi.

Ijodiy imtihon abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

1. cholg'uda ijro dasturi

№	Ijro talablari	To'liq javob uchun ball
1.	Asar nota matnining to'g'riligi	10.0
2.	Tovush sifati va uni boshqarish	7.0
3.	Applikaturaning qo'llanishi	7.0
4.	Sahna madaniyati	7.0
5.	Artikulyatsiya talablarining bajarilishi	7.0
6.	Musiqiy ifoda vositalarining to'g'ri qo'llanishi	7.0
7.	Shtrix va dinamik belgilarning ishlatilishi	7.0
8.	Intonatsiya sofligi	7.0
9.	Asar xususiyatini ochib berilishi	7.0
10.	Sur'atning to'g'ri tanlanishi	7.0

Ijro dasturi bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – **73,0 ball**

1. Kollokvium

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Asarga oid savollar	4,6
2.	Musiqiy cholg'ular bo'yicha savollar	4,6
3.	Musiqa adabiyoti bo'yicha savollar	4,6
4.	Asarning shakl nuqtai nazaridan tahlili	4,6
5.	Puflama va zarbli cholg'ular ijrochilik san'ati tarixidan	4,6

Kollokvium bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – **23,0 ball**

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: cholg'uda ijro dasturi – **73,0 ball**, kollokvium – **23,0 ball**.

“Puflama va zarbli cholg'ular ijrochiligi” fani uchun qo'yiladigan maksimal ball – **96 ball**

“Garmoniya” fanidan

Fanning maqsadi va vazifalari

“Garmoniya” fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi- abituriyentlarning “Garmoniya” fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko’nikmalarining shakllanganligi, musiqiy asarlar tahlili jarayonida garmonik qonuniyatlarni qay darajada bila olishini aniqlashdan iborat. Garmoniya musiqa ijrochilarining maxsus nazariy bilim darajasini belgilaydi. Professional ijro ko’nikmalari, tabiiy iste’dod, badiiy didning rivojlantirish bilan bir qatorda garmonik xususiyatlarni idrok etish, ijro paytida anglash qobiliyatlarini namoyon etishga hizmat qiladi. SHuningdek, musiqa muallifining asarida bayon etilgan badiiy g’oyasining garmonik jihatlarini o’zlashtirishga yordam beradi.

Abituriyentlar oldiga quyidagi vazifalar qo’yiladi:

- klassik garmoniyaning nazariy qonuniyatlarini bilish;
- nazariy bilimlarni fortepianoda ijro etish orqali namoyon etish;
- garmonik qonuniyatlariga asoslangan holda bir ovozli kuyga garmonik tuzilmalarni yaratish;
- muayyan misollar asosida garmonik tushunchalarini qo’llash;
- garmoniyaning musiqiy tilning barcha tarkibiy qismlari bilan bog’lay olish;
- musiqa asarining badiiy g’oyasi va mazmunidan kelib chiqqan holda garmonik vositalarni tanlay olish.

3. Abiturient bilimiga qo’yiladigan talablar

Abituriyent “Garmoniya” fanidan o’quv dasturi doirasida to’laqonli bilimga ega bo’lgan holda og’zaki mashqlarni xatosiz bajarganda, garmonik qonuniyatlarni yechimini fortepianoda erkin namoyon etganda, taxlil jarayonida garmonik nazariy va amaliy ko’nikmalarini namoyish qilganda, shuningdek, fan bo’yicha bilimlari yuqori badiiy darajada bo’lganida qo’yiladi. Talabaning garmonik eshitish qobiliyati, garmonik tuzilmalarni fortepianoda ijro etish mahoragi yorqin namoyon bo’lishi kerak.

4. Kasbiy (ijodiy) imtixonda abiturient tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

Og’zaki javob.

1. Musiqiy asarning garmoniya va shaklning tahlil qilish.
2. Forteapianoda:
 - a) to’rt ovozli bayonda berilgan garmonik ketma-ketlikni og’ishmalari bilan ijro etish;
 - b) berilgan tonallikda modulyatsiya ijro etish;

v) diatonik yoki xromatik sekvensiyalarni chalish.

BAHOLASH MEZONI:

OG'ZAKI

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Musiqiy asarning garmoniya va shaklning tahlil qilish.	21,0
2.	to'rt ovozli bayonda berilgan garmonik ketma-ketlikni og'ishmalari bilan ijro etish;	24,0
3.	berilgan tonallikda modulyatsiya ijro etish;	24,0
4.	diatonik yoki xromatik sekvensiyalarni chalish.	24,0
Jami		93,0

Garmoniya fani uchun qo'yiladigan maksimal ball – 93,0 ball.

Mazkur ta'lim yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo'yiladigan maksimal ball – 189,0 ball.

Ijodiy imtihonni o'tkazish tartibi

5150704 – Cholg'u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg'ular(fleyta, goboy),
5150705 - Cholg'u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg'ular(klarnet, fagot),
5150706 - Cholg'u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg'ular(valtorna, truba),
5150707 - Cholg'u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg'ular(trombon, tuba),
5150708 - Cholg'u ijrochiligi : puflama va zarbli cholg'ular(zarbli cholg'ular)
ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda va tartibda 1 soat vaqt davomida "Puflama va zarbli cholg'ular ijrochiligi" fanidan ijodiy imtihon topshiradi. Imtihonlar yakka tartibda belgilangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

Ijodiy ishni qabul qiladigan komissiya abituriyentdan ijro dasturi, bo'yicha imtihonni qabul qilib oladi, kollokvium o'tkazadi.

Appelyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtixon natijalari bo'yicha konservatoriya qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.